ZAMONAVIY TA’LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI FUTUROLOGIK TAHLILNING BUGUNGI KUNDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Nishonov Nodirbek Alimjanovich, *ADPI doktoranti*

Annotatsiya: ushbu tezisda ta’lim tizimidagi futurologik tahlilning pedagogik va psixologik jixatlariga, shu jumladan davlatlar rivojlanishida futurologik tahlilning ahamiyati haqida to`xtalib o`tilgan.

Kalit so`zlar: Forsayt, antisipatsiya, intuitsiya, pedagogik futurologiya.

Bugungi kunda ham futurologik bashoratlar jadal sur’atlar bilan tarqalmoqda. Chunki jamiyat va davlat uchun bu strategik rejalashtirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar boshqaruv tizimida „forsayt“ tushunchasi mavjud bo`lib, forsayt so`zi inglizcha „kelajakka nigoh, oldindan ko`rish “ degan ma’noni anglatadi. Bu ijtimoiy texnologiya ishtirokchilarning o`zaro hamkorligi asosida ma’lum davlat yoki hududdagi tarmoqlarning rivojlanish tendensiyasini bashorat qilishni va shu asosida istalgan kelajakni yartishni kelishib olishni o`zida mujassam qiladi.

Forsaytning asosiy tamoyillari:

- kelajakni yaratish mumkin va bu bajarilgan amallarga bog`liq;

- kelajak o`tmishdan unib chiqmaydi. Balkim qiziqtirgan tomonlarning qarorlariga bog`liq;

- ayrim tarmoqlar borki bashorat qilish mumkin. Ammo butun boshli kelajakni ishonchi tarzda bashorat qilib bo`lmaydi. Bunday kelajak uchun tayyorlanish kerak yoki o`zimiz ana shu kelajakni yartishmiz zarur[1].

Adabiyotlar tahliliga ko`ra futurologiya bir qancha adabiyotlarda prognostika, bashorat qilish deya talqin qilinadi. O`zgalardan „oldinlab ketish“ turli shakllarda namoyon bo`ladi: oldindan his qilish, oldindan ko`ra olish, oldindan tahmin qilish, oldindan ayta olish va bashorat qila olish. Ushbu kelajakni aks ettiruvchi omillarni o`zida to`laroq jamlagan tushuncha antisipatsiya deb ataladi.



Antisipatsiya lotincha „anticipatio“ – oldinga talpinish, fransuzcha „anticiper“ – oldini olish, inglizcha „anticipate“ oldindan ko`rish degan ma’noni anglatadi. Antisipatsiya – ayni vaqtda bosh miyaga ta’sir ko`rsatayotgan stimulga tayanib uning oldinga ildamlab ketish qobiliyati[2] deya ta’rif beriladi.

Oldindan his qilish – halqimizda “yuragim bezovta”, “ko`nglim hijil” deb aytiladigan jumlalar mavjud bo`lib, bu yuz berishi mumkin bo`lgan holatlarni his qilish tegrasida paydo bo`ladi. Oldindan his qilish neytral holatdagi organizmning yaqin kelajakdagi bo`lishi mumkin bo`lgan ijobiy va salbiy hodisalarni to`la anglab yetmagan holda his qilishdir. Bu vaziyatda insonda hissiy emotsional holatlar ustunligi namoyon bo`ladi.

Oldindan ko`ra olish – kuzatish asosida obye’ktning keyingi faoliyati haqida hulosalar berish asnosida rivojlanadi. Oldindan ko`ra olish ilmiy adabiyotlarda ikki ko`rinishda namoyon bo`ladi.

1. Intuitsiyaga (Intuitsiya lotincha “Intueri”- “yaxshilab nazar solish” degan ma’noni anglatadi) urg`u berilgan holda bashorat qilish;
2. Ilmiy bashoratga yaqin tushuncha bo`lib, prognoz olish jarayoni maqsadli harakterga ega bo`ladi.

Oldindan ayta olish - oldindan aks ettirishning bir ko`rinishi bo`lib, aks ettirish asosan so`zlar ko`rinishida bo`ladi. Tushunish, tushuntirish murakkab bo`lgan prognozlardan iborat. Bashoratni kelib chiqish asosi mavhumligicha qoladi.

Oldindan tahmin qilish – ushbu tushuncha o`zgacha bo`yoqdorlikka ega bo`lib, bashorat to`laqonli tahmin asosiga quriladi(topdi yoki topa olmadi). Urg`u asosan obye’ktga emas, oldinlab ketishga sabab bo`luvchi bilimga qaratilgan bo`ladi. Ilgari surilayotgan tahmin hech qanday ilmiy asosga tayangan holatda emas, balki anglab yetilmagan tasodifiy ma’lumotlarga asoslanadi.

Prognoz qilish maxsus ilmiy tadqiqot bo`lib hodisalarning rivojlanish jadalligini o`zida kasb etadi. “Pedagogika fani bugun ta’limni yangi innovatsiyon texnologiyalar bilan ta’minlayotgan kompleks vazifalarni yechayabti. Kelajakda



qaysi kasb vakillariga talab kuchli bo`lishini aniqlamasdan yangi texnologiyalarni loyihalash, ta’lim jarayoni tarkibini mukammallashtirish, yangi maqsadlar va vazifalarni qo`yishning butkul iloji yo`q. Ta’lim sohasidagi ilmiy prognozlarsiz kelajakdagi rivojlanishni boshqarib bo`lmaydi” [3].

Pedagogik futurologiya – Ta’lim sohasidagi mavjud o`zgarishlar va yutuqlarga asoslangan holda ta’limning kelajakdagi tendensiyasini bashorat qiluvchi fandir.

Pedagogik futurologiya futurlogiyaning eng noyob sohalaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda kadrlar tayyorlash tizimiga bo`layotgan e’tibor pedagogik futurologiyaning ta’lim bilan uzviy ravishda rivojlanishini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so’zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” deb ta’kidlab o’tgan. Qadimgi lotin maqolida shunday deyiladi “Bugungi kundan qanday foydalanishing ertaning sendan qanday foydalanishini belgilab beradi” . darxaqiqat keying 50 yoki yuz yildan so`ng ta’limning ko`rinishi, shakli va metodlari qanday bo`lishini prognozlash pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo`lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. «Атлас новых профессий» Коллектив авторов. Москва.2015 9-стр.
2. Анохин П.К. Биология и нейрофизиология условного рефлекса. М.: Медицина, 1968.43- стр.
3. Катичева М.Г. Методы прогностики в системе теоретических педагогических знаний // Северо Кавказский психологический вестник. – 2010. – № 8 (4). – С. 21-25.

